

BOLANING TILI CHIQISHI KECHIKISHIGA NIMALAR SABABCHI?

Исақова Сарвиноз*Namangan davlat universiteti talabasi**Ilmiy rahbar: Nizamova Muyassar Nuriddinovna**Namangan davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada Bola nutqi rivojlanishi kechikishining asosiy sabablari. Ijtimoiy va psixologik sabablar, bola nutqining kechikishiga oiladagi muloqotni etarli emasli, stress xolatlarning ta'siri haqida to'liq yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tili chuchuklik, muloqot, nutq, nutqiy rivojlanish, faol nutq, nutqning kechikishi, chaqaloqlik davri, muloqotga kirishish, malaka, ko'nikma*

Abstract: *V state rassmotreny osnovnye prichiny zaderzhki chevogo razvitiya rebenka. Polnostyu osveshcheny social and psychological causes, lack of communication and seme and influence of stressful situation and delay in the child.*

Key words : *language fluency, communication, speech, speech development, active speech, speech delay, infancy, communication, competence, skill.*

Kirish:

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq yangi, rivojlangan jamiyat qurish yo'liga kirdi. Xalqimiz o'zining fidoiy mehnati va tinch hayoti bilan dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoridan mustahkam o'rin egallash maqsadida barcha sohalarda chuqur islohotlarni amalga oshira boshladi. Shu jumladan, kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha ishlar qatorida maktabgacha talim sohasida xam tub o'zgarishlar amalga oshirilmogda Albatta ushbu g'oyani amalga oshirishda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yo'nalishlar bilan bir qatorda barkamol avlodni voyaga yetkazish, ular nutqini o'stirish muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barkamol, xar tomonlama yetuk va sog'lom farzand tarbiyasi oilada shaklana boshlanmog'i kerak. Go'daklik davridayoq bilishi lozim bo'lgan malakalar shakllantirib boriladi. Avvalo, ota-onaning o'zi farzand ko'rishga va uni tarbiyalashga tayyor bo'lishi kerak, ular ham ruxan ham iqtisodiy tomondan tayyor bo'lishlarini talab etiladi.

Tuzatish usullari

Nutqni rivojlantirish metodlari ushbu logopedik mashg'uulotlar va mashg'uulotlarini o'z ichiga oladi. Bu aniqlangan nuqsonni bartaraf etishga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlardir. Bunday sinflarni malakali logoped o'qituvchi yoki defektologlar olib borishadi. Ushbu mutaxassislar yoshni, tashxisni va nutq kechikishning darajasiga qarab, nutqni tuzatish uchun turli usullarni qo'llaydi, jumladan:

Bolalar nutqini rivojlantirishda oilaning roli

Kasbiy usullarning ko'pligiga qaramasdan, bolaning nutqini rivojlantirishda asosiy rol oiladagi muhit bilan bog'liq. Kichkintoylar bilan kunlik aloqada bo'lish, albatta, maxsus tuzatish vositalarining samarasini sezilarli darajada oshiradi. **MUHOKAMA**

Bolalarda nutq rivojlanishdan ortda qolishiga bir qator jismoniy va ruhiy omillar sabab bo'ladi. Ulardan ba'zilarini mustaqil ravishda bartaraf etsa bo'ladi. Ayrim hollarda esa mutaxassisdan yordam so'rashga to'g'ri keladi. Bolaning gapirishiga nima xalaqit berayotganini avvalo bilish juda muhim. Albatta, bunday muammoga duch kelinganda asosan malakali logoped-defektologlar yordam ko'rsatadi. Ota-ona bolani shifokorga olib kelganda ko'rik jarayonida nutq shakllanishiga to'siq bo'layotgan sabab aniqlanadi va uni tuzatish ishlari taklif etiladi. Bola tili chiqishi kechikishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

Oilada ota-ona farzandiga tilini yarimta qilib erkalab so'zlashi bola nutqining chiqishini kechiktirishi bilan birga tili chuchuklikni xam orttirib olishi mumkin.

Ehtiyoj yo'qligi

Inglizlarda bir latifa bor: Bolakay bir necha yil davomida gapirmabdi. Ammo unga bemaza bo'tqani berishganda bundan norozi bo'lib gapirib yuboribdi. Bu voqelik haqiqatdan uzoq emas. Farzandiga keragidan ortiq g'amxo'rlik qiladigan ota-onalarning bolalari o'z istaklarini so'z bilan aytishga ehtiyoj sezmaydi. E'tibor bermaslik ham nutq rivojlanishiga turtki berishi mumkin.

Pedagogik e'tiborsizlik

Bu bola bilan umuman shug'ullanmaslik, muloqotga kirishmaslik oqibatida bolada nutq chiqishi kechikadi. Chaqaloq tug'ilganidan e'tiboran onasi va otasining, boshqa yaqinlarining muloyim so'zlari qurshovida bo'lishi kerak. Agar ona go'dakni to'ydirish va parvarishlash bilan cheklanib, u bilan muloqotni kam qilsa, gaplashilmasa qanday qilib nutq rivojlanishi mumkin? Bola bilan iloji boricha ko'proq gaplashish talab etiladi.

Oilada ikki tilda gaplashish

Oiladagi ikki tililik bolalar ham ko'pincha tengdoshlaridan kech gapishiga sabab bo'ladi.. Buning oldini olish uchun bola tili chiqquncha u bilan bitta tilda, oson so'zlar bilan gaplashish lozim.

Oiladagi Stresslar noqulay ruhiy muhit. Afsuski stress nafaqat kattalar, balki bolalar ruhiyatiga ham sal biy ta'sir ko'rsatadi. Qattiq qo'rqish, oiladagi janjallar ham bola nutqining rivojlanishini kechiktirishi mumkin. Qattiq qo'rqish, ruhiy shikastlanish duduqlanishga va ruhiy rivojlanishdan kechikishga olib kelishi bilan bolalarda duduqlanish shu bilan birga qo'rqqoqlikni, ruhiy holatni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlardagi kechikish bolalar psixologi yordamida bartaraf etiladi

TAXLIL VA NATIJALARI

Bola nutqi rivojlanishi kechikishining asosiy sabablari:

1. Bola nutqi rivojlanishining kechikish sabablari perinatal davrga borib taqalishi mumkin. Agar ona homiladorlik paytida biror infeksiyani boshdan kechirgan bo'lsa, bola kech gapira boshlashi ehtimoli mavjud.

2. Eshitish organiga zarar yetganlik. Bola yaxshi eshitmasa u normal so'zlasha olmaydi.

3. Artikulyar apparatga zarar yetgan, rivojlanishdagi tug'ma nuqsonlar, lab tirtiqliqi kabi hollarda ham bola nutqi tushunarsiz bo'lishi mumkin.

4. Agar bolaning atrofidagilar uni yarim so'zidan tushunsa yoki bola bilan gaplashadigan odam bo'lmasa, u umuman gapirmasligi ham mumkin. Muloqotning yetishmasligi aksariyat

hollarda nutq rivojlanishi kechikishining asosiy sababi bo'ladi. Bu odatda ota-ona doim band va bola o'z holiga tashlab qo'yilgan oilalarda uchraydi.

Tahlillar natijalariga ko'ra bolada nutqni tug'ilganidan boshlab rivojlantirish kerak. Garchi bola hali juda kichkina, hech narsani tushunmaydigandek tuyilsa-da, bolalarga ertaklar o'qib berish, sher o'qib berish, bularning barchasi bolaning miyasining rivojlanishiga va ko'proq yangi so'sozlarni aloqalarning paydo bo'lishiga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa o'rni aytish joizki, bolaning tili chiqishining kechikishiga bolalar turli sharoitda, muxitda dunyoga keladilar va asosiy sabab oilada bolalar bilan muloqotni qanday olib borilishiga bog'liq bo'ladi. Ular juda kichkinaligidanoq bolalarni uzoqdan kuzatishni yaxshi ko'radi. Bolalar bilan birga o'ynamaydi, to'rt yoshga to'lganda zo'rg'a gapirishni boshlaydi. Bunday tabiatli bolalarda kech gapirish atrofidagi muhit to'g'risidagi tasavvurning kamligi va haddan tashqari tortinchoqlik shu tufayli paydo bo'ladi. Bunday bola bilan ko'proq muloqotda bo'lish, birga qo'shib o'ynash, do'konlarga, didaktik o'yinlarni o'nashni taklif etish lozim. Bolalarda didaktik o'yinlar orqali tili chiqishi bilan birga nutqida bor kamchiliklar korreksiyalanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.G. Q. Sodiqova, A.G'.Axmedov, G.M. Tursunxodjaeva "Bolalar nevrologiyasi" Toshkent 2008 yil
- 2.Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari-T. 2012 yil
- 3.M. Ayupova "Logopediya" 2007 yil
- 4.Shomaxmudova R. Sh. Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish.-T 1994-yil
- 5." Logopediya" (L. S. Volkova tahriri ostida).- M.1989-yil Majidov. "Nevropotologiya". - T 1986-yil.
6. Низамова, М. Н. "ПРИЧИНА ВОЗНИКНОВЕНИЯ АУТИСТИЧЕСКОГО ДЕФЕКТА." *Ученый XXI века* 5-1 (86) (2022): 59-61.
- 7.НИЗАМОВА, М. (2022). DEVELOP THE PROFESSIONAL MOBILITY OF STUDENTS PEDAGOGICAL ESSENCE AND FUNCTIONS. *UNIVERSITETI XABARLARI*, 1(9).